

OIV INFEKSIYASI BO'YICHA AHOLINING HABARDORLIK DARAJASINI ANIQLASH UCHUN SO'ROVNOMA NATIJALARI.

Matnazarova Gulbahor Sultanovna	<i>Toshkent davlat tibbiyot universiteti epidemiologiya kafedrası professori, t.f.d.</i>
Qodirova Sarvinoz Bakhtiyorjon qizi	<i>TDU Epidemiologiya kafedrası magistri</i>
Saidkasimova Nargiza Sayfullayevna	<i>Toshkent davlat tibbiyot universiteti epidemiologiya kafedrası dotsenti, PhD</i>
Xamzayeva Nilufar Toshtemirovna PhD	<i>TDU Epidemiologiya kafedrası katta o'qituvchisi</i>
Kurbaniyazova Malika Oralbayevna	<i>Toshkent davlat tibbiyot universiteti epidemiologiya kafedrası assistenti</i>
Bobojonova Shohista Davronbekovna	<i>TDU Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası assistenti</i>

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot aholining OIV infeksiyasi bo'yicha xabardorlik darajasini baholash, noto'g'ri qarashlar va stigma omillarini aniqlash hamda profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida 474 nafar respondent ishtirokida onlayn so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma 20 ta savoldan iborat bo'lib, OIV infeksiyasi haqida umumiy bilim darajasi, yuqish yo'llari, profilaktika usullari, diagnostika imkoniyatlari, onadan bolaga yuqish mexanizmlari hamda OIV bilan yashovchilarga nisbatan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oldi.


Natijalarga ko'ra, respondentlarning 84,4 % OIVning asosiy yuqish yo'llarini to'g'ri bilgan bo'lsa-da, aholining ma'lum qismida virus havo yoki maishiy yo'l bilan yuqadi degan noto'g'ri tasavvurlar saqlanib qolgan. Profilaktika va diagnostika bo'yicha bilimlar nisbatan yuqori bo'lib, respondentlarning 87,6 % OIVni aniqlashda ELISA yoki ekspress test qo'llanilishini to'g'ri ko'rsatgan. Shu bilan birga, OIV bilan yashovchilarga nisbatan ijtimoiy stigma darajasi yetarli darajada kamaymaganligi aniqlangan.

Epidemiologik va statistik tahlillar (χ^2 , Pearson r) OIV haqida bilim darajasi ortishi bilan to'g'ri profilaktik xulq-atvor va stigma kamayishi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Olingan natijalar aholi orasida OIV profilaktikasi bo'yicha ma'rifiy dasturlarni kuchaytirish zarurligini asoslab beradi.

Kalit soʻzlar:	OIV infeksiyasi, xabardorlik darajasi, soʻrovnoma tadqiqoti, epidemiologik tahlil, OIV yuqish yoʻllari, profilaktika, diagnostika (ELISA, ekspress test), onadan bolaga yuqish, stigma va diskriminatsiya, ijtimoiy munosabat, yosh va jins omillari, sogʻlomlashtirish dasturlari, sanitariya-maʼrifiy ishlar.
-----------------------	---

Biz tadqiqotda aholining OIV infeksiyasi toʻgʻrisidagi xabardorlik darajasini baholash, bilim va tushunchalaridagi boʻshliqlarni aniqlash hamda profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish uchun soʻrovnoma oʻtkazdik. Tadqiqot natijalari asosida OIV infeksiyasining oldini olish, stigma va notoʻgʻri qarashlarni kamaytirishga qaratilgan sogʻlomlashtirish va maʼrifiy dasturlarni shakllantirishni rejalashtirdik. Tadqiqotda jami **474 nafar respondent** ishtirok etdi. Soʻrovnoma 20 ta savoldan iborat boʻlib, quyidagi yoʻnalishlarni qamrab oldi: OIV infeksiyasi haqida umumiy xabardorlik darajasi; Virusning yuqish va oldini olish yoʻllari boʻyicha bilimlar; Onadan bolaga yuqish mexanizmlari; Diagnostika (ELISA, ekspress test) haqida tushuncha; OIV bilan yashovchilarga boʻlgan ijtimoiy munosabat va stigma darajasi; Toʻgʻri maʼlumot manbalari (tibbiyot muassasalari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar) boʻyicha fikrlar. Tadqiqotda qatnashchilarning **asosiy yoshi 18–45 yosh oraligʻida** boʻlib, bu epidemiologik jihatdan faol, reproduktiv yoshdagi qatlamni ifodalaydi. Maʼlumotlar **Microsoft Excel** dasturida kodlashtirilib, **deskriptiv va korrelyatsion statistik tahlil** oʻtkazildi (χ^2 , Pearson r).


Tadqiqotdan kutilgan asosiy maqsad — aholining OIV infeksiyasi toʻgʻrisidagi bilim darajasini aniqlash, notoʻgʻri qarashlar va stigma sabablarini aniqlab, profilaktik targʻibot ishlarini kuchaytirish uchun ilmiy asos yaratishdir. Olingan maʼlumotlar keyinchalik hududiy profilaktika dasturlarini rejalashtirish va maqsadli sogʻlomlashtirish ishlarini tashkil etishda foydalaniladi



3.7-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan ishtirokchilarning jins buyicha taxlili


Tadqiqotda jami 474 nafar respondent ishtirok etgan boʻlib, ularning 73,4% ini ayollar, 26,6% ini esa erkaklar tashkil etgan (1-rasm). Ushbu natija OIV infeksiyasi boʻyicha oʻtkazilgan onlayn soʻrovnomada ayollar faolligining yuqoriligini koʻrsatadi. Google Forms platformasi orqali oʻtkazilgan tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriy

bo'lgani sababli, ayollar orasida sog'liq masalalariga nisbatan yuqori qiziqish va mas'uliyat hissi kuzatilgan. Shu bilan birga, erkaklar ulushi nisbatan kam bo'lgani (26,8%) aholining erkak qismi orasida OIV infeksiyasi masalalarida xabardorlikni oshirishga qaratilgan maqsadli axborot va profilaktika tadbirlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, so'rov natijalari OIV infeksiyasi haqida aholining fikrini o'rganishda ayollar yetakchi ishtirokchi guruh sifatida namoyon bo'lganini, bu esa ularning sog'lom turmush tarzi, onalik salomatligi va profilaktika masalalariga faol yondashuvini aks ettiradi.



3.7-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan ishtirokchilarning yosh buyicha taxlili

So'rovnomada jami 474 nafar respondent ishtirok etgan bo'lib, ularning yoshi quyidagicha taqsimlangan (3.7-rasm) 18–30 yoshdagilar – 64,3%, 31–45 yoshdagilar – 23%, 46–60 yoshdagilar – 10,8%, 60 yoshdan yuqorilar – 1,9% ni tashkil etdi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotda asosiy ishtirokchilar yoshlar, ya'ni 18–30 yosh oralig'idagi shaxslar bo'lib, ular uchdan ikki qismdan ortig'ini tashkil qilgan. Bu holat OIV infeksiyasi bo'yicha onlayn so'rovnomada aynan yosh avlodning raqamli faolligi va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishi bilan izohlanadi. Shuningdek, 31–45 yosh guruhining nisbatan past ulushi (22,9%) bu yosh toifasida bandlik, ish yuklamasi yoki sog'liq mavzusiga qiziqishning pastligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 46 yoshdan yuqori qatlamning ishtiroki esa juda kam (12% dan sal ortiq), bu esa katta yoshdagi aholiga raqamli so'rovnomalar orqali murojaat etish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, so'rov natijalari yoshlar orasida OIV infeksiyasi haqida fikr yuritish, savollarga javob berish va profilaktikaga oid qarashlarni o'rganish uchun eng faol auditoriya yosh avlod ekanini ko'rsatdi. Shu sababli, kelgusida profilaktik dasturlar va axborot kampaniyalarini asosan 18–30 yoshdagi aholi orasida interaktiv va raqamli platformalarda kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.




3.8-rasm. Tadqiqotda ishtirok etgan ishtirokchilarning ma'lumoti buyicha taxlili So'rovnoma jami 473 nafar respondent ishtirok etgan bo'lib, ularning ta'lim darajasi quyidagicha taqsimlangan (3.8-rasm): Oliy ma'lumotlilar – 60,8%, Umumiy o'rta ta'limlilar – 33,5%, Boshqa (masalan, o'rta maxsus yoki texnik ta'lim) – 5,7%. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, so'rovnoma oliy ma'lumotga ega ishtirokchilar ustunlik qiladi. Bu holat OIV infeksiyasi, sog'lom turmush tarzi va profilaktika masalalariga yuqori bilimli qatlamning qiziqishi va ijtimoiy faolligi yuqoriligini bildiradi. Umumiy o'rta ta'limga ega respondentlarning (uchdan bir qismi) ishtiroki ham muhim ko'rsatkich bo'lib, bu toifa orasida OIV haqida to'g'ri va ishonchli ma'lumotlarni tarqatish, soddalashtirilgan ma'rifiy kampaniyalar o'tkazish zarurligini anglatadi. "Boshqa" toifasiga kirgan (5,7%) ishtirokchilar, odatda, o'rta maxsus yoki kasbiy texnik ta'lim olgan shaxslar bo'lib, bu guruhni ham OIV profilaktikasi bo'yicha maqsadli sog'lomlashtirish ishlari doirasiga kiritish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, so'rovnoma ta'lim darajasi yuqori bo'lgan shaxslar ustunlik qilgan, bu esa OIV infeksiyasi to'g'risidagi bilim va xabardorlikni oshirishda ta'lim muassasalari orqali targ'ibotning samarali yo'nalish ekanini tasdiqlaydi.



3.9-rasm. OIV ning yuqish yo'llarini bilish darajasi bo'yicha tahlili


Tadqiqot savollarida axolini OIV infeksiyasi yuqish yo'llari bo'yicha bilimini tekshirganimizda **84,4 %** ishtirokchilar OIV infeksiyasi qon, jinsiy aloqa va ona suti orqali yuqishini to'g'ri ko'rsatgan. Bu aholining katta qismi OIV yuqishining asosiy

mexanizmlarini to'g'ri bilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 9,5 % ishtirokchilar virus havo orqali yuqadi deb noto'g'ri fikr bildirgan, 5 % esa ozuqa mahsulotlari orqali, 1 % esa qo'l siqish orqali yuqadi deb javob bergan. Bunday noto'g'ri tasavvurlar aholining ayrim qismi orasida OIV infektsiyasiga nisbatan stigmatizatsiya va qo'rquv omillari saqlanib qolganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu holat sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va OIV profilaktikasi bo'yicha sanitariya ma'rifiy ishlarda davom etish zarurligini ta'kidlaydi. Epidemiologik nuqtai nazardan, aholining 15 % ga yaqinida OIV yuqish yo'llari haqida yetarli tushuncha yo'qligi, virusning nazoratini qiyinlashtiruvchi bilim bo'shlig'i sifatida baholanishi mumkin. Shu sababli, profilaktika dasturlarida axborot-kommunikatsion yondashuvlar, sog'lom xulq-atvorni shakllantirish treninglari, ommaviy axborot vositalarida maqsadli targ'ibot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.



3.10-rasm. OIV ning yuqish yo'llarini bilish darajasi bo'yicha tahlili

So'rovnoma jami **474 nafar ishtirokchi** qatnashgan bo'lib, ularning **74,3 % ini ayollar** tashkil etgan. Bu holat tadqiqotning tematik yo'nalishiga — onadan bolaga OIV infektsiyasi yuqish xavfi masalasiga — bevosita dolzarblik beradi, chunki ayollar bu jarayonning biologik subyekti sifatida asosiy ma'lumot manbai hisoblanadi. Natijalarga ko'ra, ishtirokchilarning 46,4 % i OIV infektsiyasi homiladorlik, tug'ruq va emizish davrlarining barchasida yuqishi mumkinligini to'g'ri ko'rsatgan. Bu to'g'ri javoblar sonining nisbatan yuqori ekanini bildiradi, ammo shunga qaramay, 53,6 % ishtirokchilar bu borada noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan tasavvurlarga ega. Xususan, 14,8 % — faqat tug'ruq vaqtida, 18,8 % — faqat emizish orqali, 12,4 % esa umuman yuqmaydi deb javob bergan. Epidemiologik jihatdan, bu natijalar ayollar orasida OIVning vertikal (onadan bolaga) yuqish mexanizmlari to'g'risida bilim yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Statistik jihatdan, respondentlarning jinsiy tarkibi (ayollar ulushi 74,3 %) bilan to'g'ri javob berish ko'rsatkichi (46,4 %) o'rtasida o'rta darajadagi ijobiy bog'liqlik aniqlangan ($p < 0,05$). Bu shuni anglatadiki, ayollar sonining ko'pligi bilim darajasining yuqorilashiga qisman ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, u yetarli darajada emas. Tahlil shuni ko'rsatadiki, reproduktiv yoshdagi ayollar o'rtasida OIVning perinatal yuqish yo'llari bo'yicha tushunchani kuchaytirish zarur. Profilaktika nuqtai nazaridan, antenatal patronaj, tug'ruq oldi maslahatlari, ona suti bilan oziqlantirish bo'yicha ma'rifat ishlarini kengaytirish OIV nazoratining samaradorligini oshiradi.



3.11-rasm. OIV ning Profilaktikasini bilish darajasi bo'yicha tahlili

So'rovnomada jami **474 nafar respondent** ishtirok etgan bo'lib, ularning **74,3 % ayollarni** tashkil etgani OIV infeksiyasi profilaktikasi masalalarida xotin-qizlar o'rtasidagi xabardorlik darajasini baholash imkonini beradi. Natijalarga ko'ra, **71,5 %** ishtirokchilar OIV infeksiyasining oldini olishning eng ishonchli yo'li sifatida ishonchli bitta sherik bilan jinsiy hayot kechirishni tanlagan. Bu yuqori ko'rsatkich respondentlarning aksariyatida OIVning jinsiy yo'l bilan yuqishini to'g'ri tushunganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, **15,4 %** ishtirokchilar sport bilan shug'ullanishni, **8,2 %** esa xalq tabobatini qo'llashni, **5 %** ga yaqini esa ko'p suv ichishni himoya chorasiga teng deb hisoblagan.

Epidemiologik nuqtai nazardan, bu natijalar OIVning oldini olishda tibbiy asoslangan xulq-atvor modeli yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, aholining taxminan **28–30 %** qismida noto'g'ri profilaktik qarashlar saqlanib qolganini ko'rsatadi. Bunday holat OIVga qarshi kurashda axborot-kommunikatsion intervensiyalarni kuchaytirish zarurligini bildiradi. Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, OIVning yuqish yo'llarini to'g'ri bilganlar (**84,4 %**) va oldini olishning to'g'ri yo'lini tanlaganlar (**71,5 %**) o'rtasida o'rta darajadagi ijobiy bog'liqlik ($r \approx 0,62$; $p < 0,05$) mavjud. Bu shuni anglatadiki, infektsiya yuqish mexanizmlari haqidagi bilim darajasi ortishi bilan profilaktik xulq-atvor to'g'ri shakllanish ehtimoli ham oshadi.

Ushbu natijalar epidemiologik profilaktika nuqtai nazaridan shuni ko'rsatadiki, aholining xabardorlik darajasini yanada oshirish maqsadida maktab, kollej, oliy ta'lim va tibbiyot muassasalarida OIV profilaktikasi bo'yicha ma'rifiy treninglar, psixologik maslahatlar va interaktiv o'quv dasturlarini joriy etish samarali bo'ladi.

So'rovnomaning OIV infeksiyasini aniqlash uchun qaysi tahlil o'tkaziladi degan bandida qanashuvchilarning **87,6 %** i OIV infeksiyasini aniqlash uchun ELISA yoki ekspress test o'tkazilishini to'g'ri tanlagan. Bu ko'rsatkich respondentlarning aksariyati OIV diagnostikasi mexanizmini to'g'ri tushunganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, **5 %** respondent qand miqdori tahlili, **5,6 %** — gemoglobin, **1,8 %** — rentgen orqali aniqlanadi deb javob bergan. Epidemiologik nuqtai nazardan, bu natijalar OIV tashxislash usullari to'g'risida aholining bilim darajasi yuqori (**87,6 %**) ekanini bildiradi, ammo **12–13 %** ishtirokchilar orasida hali ham noto'g'ri tushunchalar mavjudligi aniqlangan. Bunday bilim bo'shlig'i infektsiyani erta aniqlash imkoniyatiga

ta'sir qilishi mumkin, chunki diagnostika bo'yicha noto'g'ri tasavvurlar skrining va tekshiruvlardan voz kechish xavfini oshiradi.

Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, OIVning yuqish yo'llarini to'g'ri bilgan respondentlar (84,4 %) hamda to'g'ri diagnostika usulini tanlaganlar (87,6 %) o'rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiya ($r \approx 0,78$; $p < 0,01$) mavjud. Bu shuni anglatadiki, infektsiyaning yuqish mexanizmlarini to'g'ri bilgan shaxslar diagnostika usullarini ham to'g'ri tanlaydi. Bundan tashqari, OIVning oldini olish yo'llarini to'g'ri tanlagan (71,5 %) respondentlar orasida to'g'ri tahlil usulini bilish darajasi ham yuqori bo'lgani kuzatilgan ($\chi^2 = 6,21$; $p < 0,05$). Demak, bilimning kompleks shakllanishi — ya'ni yuqish yo'llari, profilaktika va diagnostika bo'yicha ma'lumotlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi — OIV nazoratining samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Kiyingi bosqichdagi OIV infeksiyasining yuqish xavfi bor holatda (masalan, igna sanchilganida) nima qilish kerak? Degan savolga So'rovda ishtirok etgan 474 nafar respondentning 90,3 % i OIV infeksiyasi yuqish xavfi bo'lgan holatda (masalan, igna sanchilganida) darhol shifokorga murojaat qilish kerakligini to'g'ri tanlagan. Bu yuqori ko'rsatkich aholining aksariyatida postekspozitsion profilaktika (PEP) haqida umumiy tushuncha shakllanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 5 % ishtirokchi suv bilan yuvish kifoya, 3,5 % esa hech narsa qilmaslik yoki uyda davolanish deb noto'g'ri javob bergan.

Statistik bog'liqlik tahliliga ko'ra, OIV infeksiyasini aniqlash usulini to'g'ri bilganlar (87,6 %) va xavfli holatda to'g'ri harakat qilganlar (90,3 %) o'rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiya ($r \approx 0,81$; $p < 0,01$) mavjud. Bu shuni anglatadiki, OIV diagnostikasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar infeksiya xavfi yuzaga kelganda ham tibbiy jihatdan to'g'ri yo'l tutadi. Epidemiologik xulosa sifatida, aholining OIV infeksiyasi bilan bog'liq favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorligi yetarli darajada baholanishi mumkin, biroq noto'g'ri fikr bildirgan 10 % atrofidagi qatlam uchun maqsadli o'quv-treninglar va amaliy simulyatsiya mashg'ulotlarini kuchaytirish zarur.

So'rovnomadagi kiyingi so'rov OIV Infeksiyasi bilan yashayotgan odam bilan bir xonada yashash mumkinmi degan savolga ja 56,8 % OIV infeksiyasi bilan yashayotgan shaxs bilan bir xonada yashash mumkin degan to'g'ri fikrni bildirgan. Shu bilan birga, 22,8 % ishtirokchi "yo'q, xavfli", 6,3 % — "faqat niqobda", 14,1 % esa "faqat alohida idish bilan" yashash mumkin deb noto'g'ri javob bergan.

Epidemiologik jihatdan, bu natija aholining yarmidan ko'prog'i OIV infeksiyasi faqat qon, jinsiy aloqa va ona suti orqali yuqishini to'g'ri anglaganini tasdiqlaydi (84,4 % yuqish yo'li haqidagi savol bilan bog'liq). Shu bilan birga, 40 % ga yaqin qatnashchilar orasida OIV bilan yashovchilarga nisbatan stigmatizatsiya (ijtimoiy ajratish) elementlari saqlanib qolgan. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, OIV yuqish yo'llarini to'g'ri bilganlar (84,4 %) va OIV bilan yashovchi shaxs bilan yashash mumkinligini to'g'ri tanlaganlar (56,8 %) o'rtasida o'rta darajadagi ijobiy bog'liqlik ($r \approx 0,58$; $p < 0,05$) aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, infektsiyaning yuqish mexanizmlari haqida to'g'ri bilimga ega bo'lgan shaxslar virus bilan yashovchilarga nisbatan kamroq ijtimoiy cheklov va qo'rquv bildirgan. xulosa sifatida aytish mumkinki, aholining OIV infeksiyasi bilan yashayotgan shaxslarga nisbatan ijtimoiy bag'rikenglik darajasi yetarli emas, bu esa sog'lom kommunikatsiya, ma'rifat va stigma kamaytirishga

qaratilgan targ'ibot dasturlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. OIV bilan yashovchilarga nisbatan ijtimoiy munosabatni taxlil qilish uchun berilgan savollar taxlili shuni ko'rsatdiki "OIV bilan yashovchi odam bilan bir xonada yashash xavflimi?" savoliga 56,8 % respondent "xavf yo'q" deb javob bergan, 43 % esa "havodan yuqadi" yoki "faqat alohida idishda yashash kerak" degan. Bu natija stigmatizatsiya darajasi hali yuqoriligini ko'rsatadi.

"OIV yuqish yo'li" haqidagi to'g'ri javoblar bilan bu savol o'rtasida o'rta bog'liqlik ($r = 0,58$; $p < 0,05$) aniqlangan. Shuningdek, "OIV bilan yashayotgan odamlar qanday hayot kechirishi mumkin?" savoliga 76 % ishtirokchi "to'g'ri davo va dori bilan uzoq, sog'lom hayot kechiradi" deb javob bergan. Bu "ARV dori vositalari qachon boshlanadi?" savoli bilan ijobiy bog'liq ($r = 0,54$; $p < 0,05$) bo'lib, xabardorlik darajasi ART terapiyani tushunish bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. "OIV haqida to'g'ri ma'lumot manbasi" sifatida 61,3 % respondent sog'liqni saqlash muassasalarini tanlagan, 28 % esa "ijtimoiy tarmoqlar" deb javob bergan. Bu holat axborot manbalarida ishonchlilik muammosi mavjudligini bildiradi.

OIV haqida jamiyatda ochiq gapirish zarurati haqidagi savolda 74,7 % respondent to'g'ri fikr bildirgan — bu sog'lom kommunikatsiya va stigma kamaytirish yo'lida ijobiy indikator hisoblanadi. Biroq 20 % atrofidagi qatlam OIV mavzusini "sirli" yoki "faqat shifokorlar ishi" deb hisoblagan, bu esa stigmatizatsiya darajasi jamiyatda hali ham mavjudligini tasdiqlaydi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki so'rovnoma natijalari OIV infeksiyasi bo'yicha aholining umumiy xabardorlik darajasi 70–85 % oralig'ida ekanini ko'rsatdi.

OIV yuqish yo'li, oldini olish va diagnostika haqidagi bilimlar o'rtasida kuchli korrelyatsiya ($r = 0,74$; $p < 0,01$) mavjud; Xabardorlik darajasi va stigma ko'rsatkichlari o'rtasida teskari bog'liqlik ($r = -0,41$) qayd etilgan, ya'ni bilim ortgan sari ijtimoiy ajratish kamayadi; Jins va ma'lumot darajasi OIV haqidagi to'g'ri javoblarga muvofiq ta'sir ko'rsatadi ($\chi^2 = 11,23$; $p < 0,05$). Aholining OIV bo'yicha umumiy bilimlari yetarli bo'lsa-da, stigmatizatsiya, noto'g'ri qarashlar va amaliy ko'nikmalarning yetarli emasligi aniqlangan. Shu sababli, OIV profilaktikasi tizimida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi maqsadli ma'rifiy intervensiyalarni kuchaytirish;

Reproduktiv yoshdagi ayollar o'rtasida OIVning onadan bolaga yuqishini oldini olish bo'yicha axborot dasturlarini joriy etish;

ART terapiyani erta boshlash va muntazam qabul qilish haqida aholiga amaliy ko'rsatmalar berish;

OIV bilan yashovchilarga nisbatan ijtimoiy bag'rikenglikni oshirish va stigma darajasini kamaytirishga qaratilgan kommunikatsion loyihalarni kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tajibayeva, D. A., Saidkasimova, N. S., & Xamzayeva, N. T. (2025). O'tkir yuqumli ichak infeksiyalari epidemiologik xususiyatlari va ularning epidemiologik nazoratini takomillashtirish (qoraqolpog 'iston respublikasi misolida).
2. Toshtemirovna, K. N., Islamovna, S. G., & Sultanovna, M. G. (2023). The Effectiveness Of A New Food Substance-A Hard Gelatin Capsule-"Sedan Bark" Is

Being Studied In Children Who Have Recovered From The Coronavirus. *British View*, 8(3).

3. Xamzayeva, N. T., & Kurbanliyazova, M. O. (2025, April). 2020-2023 YILLAR VA 2024 YILNING 6 OY MO'BAYNIDA TOSHKENT SHAHRIDAGI COVID-19 INFEKSIYASI BILAN KASALLANISHNING RETROSPEKTIV EPIDEMIOLOGIK TAHLILI. European youth innovation society conference.

4. Искандарова, Г. Т., Шерқўзиева, Г. Ф., & Курбаниязова, М. О. (2022). *Сув ҳавзалари суви сифатини эколого-гигиеник текишириш натижалари* (Doctoral dissertation, Ташкент).

5. Миртазаев, О. М., & Саидкасимова, Н. С. (2016). Современные аспекты эпидемиологии сальмонеллёзов в республике Узбекистан. *Инфекция, Иммуитет. Фармакология*, 7, 103-106.

6. Миртазаев, О. М., Матназарова, Г. С., & Магзумов, Х. Б. (2023). ЗООНОЗНЫЙ САЛЬМОНЕЛЛЁЗ-БОЛЕЗНЬ ЦИВИЛИЗАЦИИ.«.микробиологиянинг долзарб муаммолари» мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани, 132.

7. Неъматова, Н. Ў., Абдукахарова, М. Ф., & Хамзаева, Н. Т. (2024). Механизм Развития Эпидемического Процесса При Внутрибольничной Вич-Инфекции В Городе Ташкент.

8. Khamzaeva, N. T., & Saidkasimova, N. S. (2023). The effectiveness of a new food substance-a hard gelatin capsule-«vizion junior» is being studied in children who have recovered from the coronavirus. *world Bulletin of Public Health*, 20, 41-45.

9. Khamzaeva, N. T., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., & Abdukaxarova, M. F. (2024). Coronavirus in the republic of uzbekistan during 2020-2023 retrospective epidemiological analysis of the disease (tashkent city as an example). *World Bulletin of Public Health*, 33, 108-114.

10. Oralbaevna, K. M., Toshtemirovna, K. N., & Ilxamovna, M. G. (2024). PROBLEMS OF SAFE AND AFFORDABLE WATER SUPPLY WITHIN THE POPULATION OF UZBEKISTAN AT THE PRESENT STAGE.

11. Qodirova, S. B., Matnazarova, G. S., Ne'matova, N., & Abdukhalilova, G. Q. (2025). EPIDEMIOLOGY OF HIV INFECTION IN VARIOUS SOCIAL GROUPS IN FERGANA REGION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(3), 598-601.

12. Нормуратова, Г. А., Матназарова, Г. С., & Қодирова СБ, Х. Н. (2024). ОИВ-ИНФЕКЦИЯСИНИНГ ЮҚИШ ЙЎЛЛАРИ ҲАМДА ПРОФИЛАКТИК ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДАГИ БИЛИМЛАР ДАРАЖАСИНИ БАҲОЛАШ. *Журнал гуманитарных и естественных наук*, (16 [1]), 208-213.

13. Хамзаева, Н. Т., Матназарова, Г. С., & Саидкасимова, Н. С. (2024). ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЯГКИХ ЖЕЛАТИНОВЫХ КАПСУЛ “ҚОРА СЕДАНА” У ДЕТЕЙ С КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИЕЙ. *Академические исследования в современной науке*, 3(40), 20-24.

14. Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., & Ismailov, O. D. (2025). Dynamics of Viral Hepatitis Incidence in Uzbekistan. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(6), 484-488.

15. Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., & MK, J. (2025, May). SIVILIZATSIYA KASALLIKLARI. In *The Conference Hub* (pp. 122-125).
16. Matnazarova, G. S., Xamzayeva, N. T., & Kurbaniyazova, M. O. (2024). BOLALARDA SARS-COV-2 INFEKSIYASINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA OSHQAZON ICHAK TRAKTI BILAN BOG 'LIQ XOLATLAR.
17. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., & Saidkasimova, N. S. (2019). Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellous infection in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Medicine*, 2019(4), 72-80.
18. Шадманов, А. К., Азизова, Ф. Л., Матназорова, Г. С., Брянцева, Е. В., & Курбаниязова, М. О. (2025). III-Международная конференция студентов и молодых ученых «ПРОБЛЕМЫ БАКТЕРИАЛЬНЫХ, ВИРУСНЫХ И ПАРАЗИТАРНЫХ ИНФЕКЦИЙ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ» СБОРНИК ТЕЗИСОВ.